

*O'zbekiston Respublikasi
Qishloq va Suv Xo'jaligi Vazirligi
Toshkent Irrigatsiya va Melioratsiya
Instituti*

ELEKTROMAGNIT MAYDONI, ELEKTROMAGNIT TEBRANISHLARI

Mavzusi bo'yicha FIZIKA fanidan
TAQDIMOT

Rahbar: Tashtanova M.
Bajardi: GM fakulteti SXM 1/6
guruhi talabasi Norqulov A.

Reja:

1. Elektromagnit maydonni vujudga kelishi
2. Elektromagnit maydon uchun Maksvell tenglamalari.
3. Elektromagnit tebranishlar. Tebranish konturi.
4. So'nuvchi elektromagnit tebranishlar.
5. Majburiy elektromagnit tebranishlar.
Rezonans.

Tayanch so'z va iboralar:


Tebranish konturi, kondensator, solenoid, magnit maydon energiyasi, o'zgaruvchan tok, so'nuvchan tebranish.

Elektromagnit maydonni vujudga kelishi.

Maksvell siljish toki tushunchasini qo'llab XIX asr oxirlarida elektromagnit maydon nazariyasini yaratdi. Bu nazariya ikki postulatga asoslanadi.

1. O'zgaruvchan magnit maydon tufayli uyurmaviy elektr maydon vujudga keladi (elektromagnit induktsiya hodisasi).
2. O'zgaruvchan elektr maydon tufayli uyurmaviy magnit maydon vujudga keladi (magnito-elektrik induktsiya hodisasi).

Kondensator plastinkalari orasida o'zgaruvchan elektr maydon vujudga keltiraylik, yuqoridagi postulatlarga asosan, birlamchi elektr maydon kuchayib borayotgan vaqtda o'zgaruvchan elektr maydon

$$\frac{dE}{dt}$$


kuchlanganlik chiziqlari konsentrik o'rab qoladi. Vujudga kelgan o'zgaruvchan magnit maydon o'z navbatida uyurmaviy elektr maydonni vujudga keltiradi. Demak elektr maydon magnit maydonni, magnit maydon esa elektr maydonni vujudga keltiradi va hakazo. SHu tariqa fazoda bir-birini vujudga keltiruvchi elektr va magnit maydonlar ketma-ket sodir bo'laveradi. Bu maydonlar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'langanligi uchun umumiy maydonni elektromagnit maydon deb ataladi. Tabiatda «sof» elektr maydon yoki «sof» magnit maydon sodir bo'lmaydi. CHunki agar bir sanoq tizimidagi kuzatuvchi qo'zsalmas elektr zaryad tufayli vujudga kelayotgan elektr maydonni qayd qilsa, bu tizimga nisbatan harakatda bo'lgan ikkinchi sanoq tizimidagi kuzatuvchi uchun zaryad harakatlanayotgan bo'ladi.

Demak «sof» maydon tushunchasi nisbiy xarakterga ega. Biror sanoq tizimidagi «sof» elektr maydon yoki sof magnit maydon boshqa sanoq tizimida elektr va magnit maydonlar yig'indisi, ya'ni elektr magnit maydon tarzida namoyon bo'ladi.

Elektromagnit maydon uchun Maksvell tenglamalari. Maksvellning elektromagnit maydon nazariyasi asosini uning nomi bilan ataladigan to'rtta tenglama tashkil etadi.

1). qo'zg'almas zaryad q o'z atrofidagi fazoda elektr maydon vujudga keltiradi. Bu maydon potentsial maydondir. Ma'lumki potentsial kuchlarning yopiq yo'lida bajargan ishi nolga teng. SHuning uchun bu maydon kuchlanganlik vektori Eqning ixtiyoriy berk kontur bo'yicha sirkulyatsiyasi nolga teng

$$\oint_e E_{qe} dl = 0 \quad (5)$$

Elektr maydon fazoning vaqt davomida o'zgarib turuvchi magnit maydon mavjud bo'lgan barcha nuqtalarida ham vujudga keladi. Bu maydon uyurmaviy elektr maydondir. Uyurmaviy elektr maydon kuchlanganligi \mathbf{E} ning chiziqlari doimo berk. \mathbf{E} Vektorining ixtiyoriy berk kontur bo'yicha sirkulyasiyasi noldan farqli bo'lib quyidagiga teng.

$$\oint_e E_{Bl} dl = - \int_S \left(\frac{\partial \mathbf{B}}{\partial t} \right)_n dS \quad (6)$$

SHuning uchun natijaviy elektr maydon kuchlanganligini $\mathbf{E} = \mathbf{E}_q + \mathbf{E}_B$ deb belgilab (5) va (6) tenglamalarni qo'shsak.

$$\oint_e E_e dl = \oint E_{ql} dl + \oint E_{Bl} dl = - \int_S \left(\frac{\partial \mathbf{B}}{\partial t} \right)_n dS \quad (7)$$

Bu ifodani chap tomondagi integral ixtiyoriy berk kontur bo'yicha, o'ng tomondagi integral esa shu konturga tiralgan ixtiyoriy sirt bo'yicha olinadi. (7) ifoda Maksvellning birinchi tenglamasi bo'lib elektr maydoninng faqat elektr zaryadlarigina emas balki vaqt bo'yicha o'zgaruvchi magnit maydoni ham hosil qilishni ko'rsatadi.

2) Ma'lumki magnit maydon kuchlanganlik vektorining ixtiyoriy berk kontur bo'yicha tsirkulyatsiyasi shu kontur o'rab olgan barcha makroskopik toklarning algebraik yig'indisiga teng, ya'ni

$$\oint_e H_e dl = \sum I = \int_S j dS \quad (8)$$

Ma'lumki umumiy holda magnit maydon o'tkazuvchanlik toki va siljish toki tufayli vujudga kelgan magnit maydonlarning yig'indisidan iborat, ya'ni

$$j_{to'li} = j_{o'tk} + I_{sinl} \quad (9) \quad I_{sil} = \frac{\partial D}{\partial t}$$

u holda (4) ifodaga asosan

$$\oint_e H_e dl = \int_S \left(I_{ymk} + \frac{\partial D}{\partial t} \right) dS \quad (10)$$

Bu ifoda magnit maydonini faqat o'tkazuvchanlik toki emas, balki o'zgaruvchan elektr maydoni ham hosil qilishini ko'rsatadi.

3) Elektr induksiya vektori D ning ixtiyoriy berk sirt orqali oqim shu sirt ichidagi barcha erkin zaryadlarning algebraik yig'indisiga teng

$$\oint_S D_n dS = \sum q \quad (11)$$

Berk sirt ichida uzlucksiz ravishda joylashgan zaryadlarning xajmiy zichligini r bo'lса, u holda (11) ni quyidagicha yozish mumkin.

$$\oint_S D_n dS = \oint_V \rho dV \quad (12)$$

Bu Maksvellning uchuinchi tenglamasi.

4). Magnit maydon qanday usul bilan vujudga keltirilganligidan qat'iy nazar magnit induksiya chiziqlari doimo berk bo'ladi.

$$\oint B_n dS = 0 \quad (13)$$

Bu ifoda ∇ vektor uchun Gauss teoremasi bo'lib (13) ifoda Maksvellning to'rtinchi tenglamasi deb yuritiladi.

Makasvell tenglamalarida qatnashayotgan kattaliklar orasida quyidagi munosabatlar o'rinali

$$D = \epsilon_0 \epsilon E \quad B = \mu_0 \mu H$$

Maksvell tenglamalari Nyuton qonunlari, termodinamika bosh qonunlari kabi katta axamiyatga egadir.


Elektromagnit tebranishlar. Tebranish konturi.

Elektromagnit tebranishlarni kuzatish uchun elektr tebranish konturidan foydaliniladi. Bunda elektr maydon energiyasi magnit maydon energiyasiga va aksincha magnit maydon energiyasi elektr maydon energiyasiga aylanishi imkoniga ega bo'ladi. Elektr maydonni sig'imi S bo'lgan kondensator qoplamlari orasida, magnit maydonni esa induktivligi L bo'lgan solenoid yordamida vujudga keltiriladi. Kondensatorni tok manbaiga qulasak qoplamlar orasida energiyasi ~~gatengaydigan~~ gatengaydagan sil bo'ladi.






$$W = \frac{q^2}{2C}$$

Kondensatorni tok manbaidan uzib, L g'altakka ulasak kondensator razryadlana boradi, g'altak atrofida esa magnit maydoni vujudga keladi. Magnit maydon energiyasi $W = \frac{1}{2} LI^2$

Bu jarayon davomida kondensator qoplamalaridagi q zaryad, kondensatoridagi U kuchlanish va g'altak o'tuvchi I tok kuchi davriy o'zgarib turadi, ya'ni tebranadi. Tebranishda elektr va magnit maydoni energiyalari o'zaro almashinib turadi. Bunday tebranish elektromagnit tebranish deyiladi. Elektromagnit tebranish vaqtida konturda tashqi kuchlanish bo'lmaydi. SHuning uchun kondensatordagi $U_c = \frac{q}{C}$ va g'altakdagi $U_L = L \frac{dI}{dt}$ kuchlanishlar yig'indisi nolga teng.



1-rasm



2-rasm

$$U_L + U_C = 0$$

$$I = \frac{dq}{dt}$$

$$L \frac{dI}{dt} + \frac{q}{C} = 0$$

$$\frac{dI}{dt} = \frac{d^2 q}{dt^2}$$

$$\frac{d^2 q^2}{dt} + \frac{1}{LC} q = 0$$

$$\omega_0^2 = \frac{1}{LC};$$

$$\omega_0 = \frac{1}{\sqrt{LC}}$$

$$\omega -xususiy tebranish chastotasi, u holda \quad \frac{d^2 q^2}{dt} + \omega_0^2 q = 0$$

bu erkin elektr maydon tebranishini differentsiyal tenglamasi. Bu tenglamaning yechimi

$$q = q_m \cos(\omega_0 t + j)$$

Demak kondensator qoplamlaridagi zaryad miqdori garmonik qonun bo'yicha o'zgaradi. Kondensatordagi kuchlanish

$$U = \frac{q}{C} = \frac{q_m}{C} \cos(\omega_0 t + \varphi) = U \cos(\omega_0 t + \varphi)$$

ω_0 -xususiy tebranish chastotasi, u holda bu erkin elektr maydon tebranishini differentsiyal tenglamasi. Bu tenglamaning yechimi $q=q_m \cos(\omega_0 t + j)$ bo'lib, kondensator qoplamlaridagi zaryad miqdoriga monand ravishda o'zgaradi. Zanjirdagi tok kuchi ham garmonik qonun bo'yicha o'zgaradi.

$$I = \frac{dq}{dt} = -\omega_0 q_m \sin(\omega_0 t + \varphi) = I_m \cos(\omega_0 t + \varphi + \frac{\pi}{2})$$

Demak, tok kuchi zaryad va kuchlanishdan faza bo'yicha $\frac{\pi}{2}$ ga farq qiladi. Konturni tebranish davri $T = \frac{2\pi}{\omega_0} = 2\pi\sqrt{LC}$ bo'lib bu Tomson formulasi deyiladi.

So'nuvchi elektromagnit tebranishlar.

Har qanday real tebranish konturi aktiv qarshilikka ega bo'ladi. SHuning uchun kondensatorning razryadlanish jarayonida elektr maydon energiyasining faqat bir qismi magnit maydon energiyasiga aylanadi, xuddi shuningdek, kondensatorni qayta zaryadlanishda magnit maydon energiyasining bir qismi elektr maydon energiyasiga aylanadi, qolgan qismlari esa aktiv qarshilikda Joul issiqlik sifatida ajralib chiqadi. Demak, real konturdagi erkin tebranishlar so'nuvchi bo'ladi. So'nuvchi tebranishning differential tenglamasini xosil $U_c = \frac{q}{C}$ g'isli shunchi kuchlanish $U_L = L \frac{dq}{dt^2}$ va aktiv qarshilikdagi kuchlanish tushishi

$$U_R = IR = R \frac{dq}{dt}$$

ning yig'indisini nolga tenglashtirish kerak, ya'ni

$$L \frac{d^2 q}{dt^2} + R \frac{dq}{dt} + \frac{1}{C} q = 0 \quad \text{yoki}$$

$$\frac{d^2 q}{dt^2} + \frac{R}{L} \frac{dq}{dt} + \frac{1}{LC} q = 0 \quad \frac{R}{L} = 2\beta; \quad \frac{1}{LC} = \omega_0^2$$

belgilasak $\frac{d^2 q}{dt^2} + 2\beta \frac{dq}{dt} + \omega_0^2 q = 0$


Bu so'nuvchi tebranishni differentzial tenglamasi bo'lib,
uning echimi

$$q = q_m \cdot e^{-\beta t} \cos(\omega_c t + \varphi) \quad \omega_c = \sqrt{\omega_0^2 - \beta^2} = \sqrt{\frac{1}{LC} - \frac{R^2}{4L^2}}$$

bo'lib, bu so'nuvchi tebranish chastotasi so'nuvchi
elektromagnit tebranishlarning so'nash darajasi,
so'nishning logarifik dekrementi.

$$\delta = \left| \ln \frac{q(t)}{q(l + T_c)} \right| = \beta T_c = \frac{R}{2L} T_c$$

bilan xarakterlanadi. $T_c = \frac{2\pi}{\omega_c}$ -so'nuvchi tebranish davri.



3-rasm

O'ZGARUVCHAN TOK

Kvazistatsionar toklar.

Om qonuni (35.2) xamda undan kelib chikadigan Kirxgofning (36.1) va (36.2) qonunlari O'zgarmas tok uchun aniklangan edi. Lekin ular o'zgarish tezligi j uda tez bulmagan o'zgaruvchan tok va kuchlanishning oniy qiymati uchun to'g'rilingicha qoladi. Elektromagnit galayonlar zanjir bo'y lab yorug'lik tezligi s ga teng bo'lgan ulkan tezlikda tarqaladi. Agar g'alayonlanishni zanjirning eng uzoq, nuqtasiga uzatish uchun zarur bo'lgan $x = l/c$ vaqt ichida tok kuchi juda kam o'zgarsa, u xolda tok kuchining oniy qiymati zanjirning butun kesimi bo'y lab amalda birday bo'ladi. Shunday shartlarga bo'ysunadigan toklar kvazistatsionar toklar deyiladi. Davriy o'zgaradigan toklar uchun kvazistatsionarlik sharti quyidagicha yoziladi:

$$\tau = - \frac{1}{c} << T, \quad \text{bu yerda } T - \text{o'zgarish davri.}$$

Zanjir o'lchami taxminan 3 m bo'lganda $T=10^{-8}$ sek bo'ladi. Shunday qilib, tebranish davri $T \approx 10^{-6}$ sek (bu 10^6 gts chastotaga mos keladi) bo'lgunga qadar bunday zanjirdagi tokni kvazistatsionar tok deyish mumkin. Sanoat chastotasidagi ($v = 50$ gts) tok $\sim 100\text{ km}$ uzunlikdagi zanjir uchun kvazistatsionardir.

Kvazistatsionar toklarning oniy qiymatlari Om konuniga bo'ysunadi. Binobarin, bu toklar uchun Kirxgof qoidalari xam o'rinnlidir. Induktivlik va sigimga ega bo'Imagan) R qarshilikning (bunday qarshilikni, odatda aktiv qarshilik deyiladi) ikki uchiga $U = U_m \cos\omega t$ (1.1)

Xar qanday o'tkazgich (masalan, simning tug'ri chiziqli kesmasi) biror sig'im va induktivlikka ega. Shuning uchun „toza” aktiv qarshilik R , induktivlik L va sig'im S abstrakt hisoblanadi.

Qonun bo'yicha **o'zgaruvchi kuchlanish berilgan bo'lsin**, bunda Um - kuchlanishning amplituda qiymati.

Kvazistatsionarlik sharti bajarilganda karshilikdan o'tayotgan tok Om qonuni bo'yicha topiladi:


$$i = \frac{U}{R} = \frac{U_m}{R} \cos \omega t = I_m \cos \omega t.. \quad (1.2)$$

Shunday qilib, tok kuchi va kuchlanishning amplituda qiymatlari orasida quyidagicha munosabat mavjud:

$$I_m = \frac{U_m}{R}. \quad (1.3)$$

Agar o'zgaruvchan tok va kuchlanishni vektorlar yordamida tasvirlasak (xuddi garmonik tebranishlarda qilingani kabi ular orasidagi munosabat yanada yaqqolroq ko'rindi. Ixtiyoriy yo'nalish tanlaymiz va bu yo'nalishni toklar deb ataymiz (1 – b rasm) - Shu yo'nalish bo'yicha $1t$ uzunlikdagi tok vektorini joylashtiramiz. Qaralayotgan holda tok va kuchlanish sinfaz o'zgargani sababli kuchlanish vektori ham toklar o'qi yo'nalishida bo'ladi;

Uning uzunligi R/m ga teng bo'ladi. Tok yoki kuchlanish vektorlarining yig'indisi ushbu zanjirning vektor diagrammasini tashkil qiladi.




$$\delta \xrightarrow{I_m} U_m = RI_m$$

Токнаның үзүү

(1-rasm)

Induktiv g'altakdan o'tuvchi o'zgaruvchan tok

Qarshiligi va sig'imi xisobga olmaydigan darajada kichik bo'lgan L induktivlikning (masalan, galtakning) uchlariga o'zgaruvchan (1.1) kuchlanish beraylik (1-a rasm). Induktivlikdan o'zgaruvchan tok o'ta boshlaydi, natijada g'altakda o'zinduktsiya e. yu. k. xosil bo'ladi.



(2-rasm)

$$\varepsilon_s = -L \frac{di}{dt}$$

(L induktivlik i tokka bog'liq emas deb faraz qilamiz). Om qonuni tenglamasi quyidagicha yoziladi ($R = 0$, potentsiallar farqi U ga teng, $E_{12} = E_s$):

$$U_m \cos \omega t - L \frac{di}{dt} = 0, \quad \text{bundan}$$

$$L \frac{di}{dt} = U_m \cos \omega t. \quad (1)$$

Qaralayotgan holda tashki kuchlanishning hammasi L induktivlikka qo'yilgan. Demak

$$U_L = L \frac{di}{dt} \quad (2)$$

kattalik induktivlikdagi kuchlanish tushishidir. Tenglamani

$di = \frac{U_m}{L} \cos \omega t dt$ ko'rinishida yozamiz. Buni integrallasak,

$$i = \frac{U_m}{\omega L} \sin \omega t + \text{Const} \quad \text{ga ega bo'lamiz.}$$

Ravshanki, tokning o'zgarmas tashkil etuvchisi yuk.
Shuning uchun const =0. Shunday qilib,

$$i = \frac{U_m}{\omega L} \sin \omega t = I_m \cos \left(\omega t - \frac{\pi}{2} \right), \quad (3)$$

bunda $I_m = \frac{U_m}{\omega L}$ (4)


(3) va (4) munosabatlarni solishtirib, ushbu holda qarshilik rolini $XL = \omega L$ (5)

kattalik tutashligini ko'ramiz, bu kattalikni reaktiv induktiv qarshilik yoki qisqacha ikduktiv qarshilik deb ataladi. Agar L ni genri hisobida, ω ni esa sek-1 hisobida olsak, XL kattalik *om* hisobida ifodalanadi.

(5) dan ω chastota ortishi bilan induktiv qarshilikning xam ortishi ko'rinish turibdi. O'zgarmas tokka ($\omega = 0$) induktivlik qarshilik ko'rsatmaydi. (1) dagi Um ni ω Um bilan almashtirib, induktivlikdagi kuchlanish tushishi uchun quyidagi ifodani olamiz:


$$U_L = \omega L I_m \cos \omega t. \quad (6)$$

(3) va (6) ifodalarni o'zaro taqqoslab, induktivlikda kuchlanish tushishi, shu induktivlikdan oqayotgan tokdan faz bo'yicha $\pi/2$ ga oldin ketar ekan degan xulosaga kelamiz.



(3- rasm)

Agar toklar o'qini 1-rasmda ko'rsatilganidek gorizontal yo'nalishda joylashtirsak, u xolda 2- b rasmda tasvirlangan vektor diagramma hosil bo'ladi. Agar kosinusning hosilasi kosinus nolga teng bo'lgan paytda eng katta qiymatga ega bo'lishini e'tiborga olsak, induktivlikda tok va kuchlanish orasidagi faza bo'yicha siljishni tushunish oson. Bunda hosila kosinusning o'ziga qaraganda $1/4$ davri ilgari maksimumga erishadi (3-rasm).



E'tiboringiz uchun rahmat